

# **“Kitob va kitobxonlik – inson ma’naviyati ko’zgusi”**

Joriy yilning 31 mart kuni Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetida kitobsevarlar klubi uchrashuvlari doirasida “Kitob va kitobxonlik – inson ma’naviyati ko’zgusi” nomli adabiy-badiiy tanlovi bo’lib o’tdi.

Tanlovda klubning a’zolaridan tashkil etilgan jamoalar to’rtta shart bo’yicha bellashdilar. Tanlov juda qiziq va ko’tarinki ruhda kechdi. Jamoalar bir-biridan qiziq bo’lgan shartlarni bajarish mobaynida o’zlarini o’zbek adabiyoti bo’yicha nechog’lik bilimdon ekanligini ko’rsatibgina qolmay, balki tomoshabinlarga ham yuqori kayfiyat bag’ishlab ularning e’tiroflariga sazovor bo’lishdi.

Bajarilgan shartlar natijalariga ko’ra, faxrli 1-o’rinni “Fikr parvozi”, 2-o’rinni “Javohir” va 3-o’rinni “Koinot” jamoalari egallashdi. G’olib va sovrindor jamoalar a’zolari diplomlar va esdalik sifatida kitoblar to’plami bilan taqdirlandilar.

















